



BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Haitova Sevinchxon G'olibjon qizi

Navoiy davlat universiteti, Aniq fanlar fakulteti 4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Xaitova Shaxnoza G'olibjon qizi

Navoiy davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada fizika va astronomiya o'qituvchilarining kasbiy kompetentligi, uni rivojlantirish usullari va bunda jahon tajribalaridan foydalanish haqida fikrlar berilgan. O'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish, o'qitishning zamonaviy usullari va ularning o'quvchilar bilim olishidagi ahamiyati berilgan. Shuningdek, o'quvchilarning mustaqil dunyoqarashini shakllantirish, tanqidiy fikrlashga o'rgatish masalalari yuritib o'tilgan.

Kalit so'zlar: kompetentiya, kompetentlik, kasbiy kompetentlik, o'qituvchining vazifasi, dunyoqarash, tanqidiy fikrlash, Axborot texnologiyalari, rivojlanish, mobil ilova, dasturlar.

Аннотация. В статье рассматривается профессиональная компетентность учителей физики и астрономии, методы её развития и использование мирового опыта в этой области. Обсуждается применение компьютерных технологий в обучении, современные методы обучения и их значение в процессе обучения студентов. Также рассматриваются вопросы формирования самостоятельного мировоззрения студентов и обучения критическому мышлению.

Ключевые слова: компетентность, компетентность, профессиональная компетентность, роль учителя, мировоззрение, критическое мышление, информационные технологии, разработка, мобильное приложение, программы.

Annotation. This article discusses the professional competence of physics and astronomy teachers, methods for its development, and the use of world experience in this regard. The use of computer technologies in teaching, modern teaching methods, and their importance in student learning are discussed. The issues of forming students' independent worldviews and teaching critical thinking are also discussed.

Key words: competence, competence, professional competence, teacher's role, worldview, critical thinking, Information technology, development, mobile application, programs.

KIRISH

Pedagog shaxsini har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya tizimini nazariy metodologik jihatdan qurollantirish-bugungi kunda pedagogika fanining bosh maqsadi sifatida belgilangan. Yuqorida bayon etilgan yuksak, ammo, sharaflil vazifalarni muvaffaqiyatli uddalash har bir pedagogik xodimdan yuksak kasbiy mahorat kasbiy malaka, bilimdonlik va keng dunyoqarashni talab etadi. Bularning barchasiga esa kasbiy kompetentlik natijasida erishiladi.

Kompetentlik tushunchasi haqida so'z yuritishdan oldin, uning mazmun va mohiyati bilan tanishib chiqish lozim.




“Kompetentlik” tushunchasiga olimlar, mutaxassis va tadqiqotchilar tomonidan bir qator ta’riflar berilgan. Ularni umumlashtirgan holda kompetentlikni muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga umumiy qobiliyat va kasbiy tayyorgarlikda namoyon bo’luvchi bilim, tajriba va ko’nikmalarga asoslangan integrallashgan bir qator sifatlar majmui deb ta’rif berish mumkin.

Kasbiy kompetentlik masalalari, ayni paytdagi pedagogika, psixologiya, sotsiologiya va menejment sohasida faoliyat yuritayotgan talqiqotchilarning diqqat markazidagi masalalardan biri bo’lib kelmoqda. Ularning fikrlarini umumlashtirgan holda kasbiy kompetentlik asosining o’ziga xos modelini taklif etish mumkin.

Kasbiy kompetentlik, insonning kasbiy faoliyatlarida mutaxassisligi, sohasida mutaxassisligi va samaradorligi ta’minlaydigan tushunchadir. Bu tushuncha kasbiy bilimlarga erishish, kasbiy ko’nikmalarga ega bo’lish va ularni amalga oshirishga yordam beradi.

Tavsiya etilgan modelda keltirilgan parametrlarni o’rgangan holda, ular o’rtasidagi uzviy bog’liqlik va bir-birini to’ldirish xususiyatlari mavjudligini ko’rishimiz mumkin. Masalan, turli shart-sharoitlarga moslasha olish, bir vaqtning o’zida, zamon talablarini to’g’ri anglash va qaror qabul qilish bilan bog’liqdir (rasmga qarang).



1.1-rasm. Kasbiy kompetentlik asoslari modeli

Jadal rivojlanishda davom etayotgan taraqqiyot milliy ta’lim tizimiga va uning sifatiga tobora qat’iy mezon va talablarni o’rnatib kelmoqda.





Zamon talablari bilan hamnafas holda qadam tashlab borish ko‘p jihatdan AKT imkoniyatlaridan keng foydalanishni taqozo etmoqda. Elektron ta‘limni rivojlantirish, bu boradagi eng muhim jihatlardan biri sanaladi.

Zamonaviy axborotlashgan jamiyat pedagog kadrlar tayyorlash sifatiga alohida talablar qo‘yadi. Zamonaviy pedagog kadrlardan internetning axborot resurslaridan maqsadli foydalana olish, mustaqil bilimlarni olishlari jarayonida axborot va kommunikatsiya texnologiyalari vositalari imkoniyatlarini joriy etishi talab etiladi. Kasbiy kompetentlikni elektron ta‘lim muhitida rivojlantirish zaruriyati:

- eng avvalo, ta‘lim xizmatlari bozori nafaqat milliy darajada balki jahon miqyosida raqobatning tobora kuchayib borayotganligi;

- ta‘lim jarayonini ta‘lim oluvchilarning ehtiyoji, imkoniyati, bilim darajasi va ularning ta‘lim olishi vaqtini mustaqil belgilashiga moslashib borayotganligi;

- kasbiy kompetentlikning oshirish masalasi ta‘lim sifati bilan bevosita aloqadorligi;

- ta‘lim oluvchilarga dunyoviy bilimlarni berish, zaruriy malaka va ko‘nikmalarni egallashida pedagog va rahbar xodimlar mas‘uliyatining oshib borishi;

- ta‘lim oluvchilarda o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasidagi o‘zgarishlarni chuqur darajada o‘zlashtirishga bo‘lgan ehtiyojning ortib borishi;

Kompetentlikka asoslangan ta‘lim sharoitida o‘qituvchi ta‘lim jarayonida an‘anaviy ta‘limga nisbatan bir oz o‘zgacha funktsiya va rolni bajaradi Bunday ta‘lim shaklida o‘qituvchidan:

- talabalarning mustaqil faol bilim faoliyatini tashkil etuvchi;

- kompetentli maslahatchi va yordamchi;

- talabalar harakatini psixologik-pedagogik aspektda baholay oladigan, ularga samarali harakatlari bilan tez yordam berishga va o‘zlashtirilgan bilimlarni munozara qilish va qo‘llashda uchraydigan qiyinchiliklarni bartaraf etishga qodir mutaxassis bo‘lish talab etiladi.

Ushbu rol an‘anaviy ta‘limga qaraganda ancha murakkab va o‘qituvchidan kasbiy kompetentlikni talab qiladi.

Har qanday ta‘lim muassasasidagi o‘quv-tarbiyaviy jarayon yoshlarni hayotga, mehnatga va o‘z shaxsiyatini rivojlantirishga tayyorlashning bugungi kun talablaridan bir qadam oldinda turishi kerak, bu esa, o‘z navbatida, o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi ushbu talablardan “ikki karra” yuqoriroq bo‘lgandagina amalga



oshadi. Faqatgina bu holat ertangi kun, kelajakka yo'naltirilgan ta'lim tizimi va pedagogika fanida har qanday ijobiy o'zgarishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi bilan kafolatlanadi.

Tadqiqotchilar fikriga ko'ra, pedagog kadrlarni tayyorlashda "ikki karra" oldinda yurish talabi bilan bir qatorda real hayotda o'qituvchi maktab hayotidan, ta'lim tizimi esa maktab talablaridan orqada qolsa, u "jamiyat talablaridan ikki baravar orqada qoladi". Pedagogik ta'limning bu xususiyati hayotning barcha sohalarini takomillashtirishda va eng avvalo, islohotlar jarayonida ta'limni hisobga olish kerakligini ko'rsatadi. Zamonaviy maktabga o'z kasbiy kompetensiyalariga ega, boshqacha aytganda, kasbiy kompetentli mutaxassis kerakdir. Bu nimani anglatishi haqida quyida batafsil to'xtalamiz.

XULOSA

Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, kompetentlikka asoslangan ta'lim (competence-based education – CBE) o'tgan asrning 70-yillarida Amerikada N. Xomskiy tomonidan til nazariyasi va transformatsion grammatikaga bog'lab taklif qilingan kompetensiya tushunchasi negizida shakllangan. R. Uaytning "Motivatsiya qayta ko'rib chiqildi: kompetentlik konsepsiyasi" ("Motivation reconsidered: the concept of competence") (1959) asarida kompetensiya kategoriyasi shaxsiy fazilat ekanligi qayd etiladi hamda u motivatsiya bilan to'ldirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mallaev O. Yangi pedagogik texnologiyalar. T. 2000.
2. Klarin M.V. Pedagogicheskaya texnologiya v uchebnom protsesse. Analiz zarubejnogo opyta // M.: Znanie, 1989 / Novoe v jizni, nauke, texnike. Ser. « Pedagogika i psixologiya ». № 6.
3. Shamshieva N.N. Strategiya innovatsionnogo razvitiya vysshix uchebnyx zavedeniy v usloviyax integratsii « VUZ-proizvodstvo ». Monografiya. T.: "Iqtisodiyot", 2016. S.156.
4. Rashidova Nilufar, Sayfullayeva G. I Achieving Transparency in Education// Open Herald: Periodical of Methodical Research Volume 1, Issue 7, November, 2023 ISSN (E): 2810-6385 Website: <https://academiaone.org/index.php/6>
5. Malikova Muhabbat, Bozorova Aziza, Sayfullayeva G. I. Relevance of Independent Educational Activities of Students in the Credit-Modular Education System// Open Academia: Journal of Scholarly Research, 1(8), 40-42. Retrieved from <https://academiaone.org/index.php/4/article/view/297>
6. G.I.Sayfullayeva, H.R.Shodiyev Kredit- modul modul tizimida fanlarni integratsion yondashuv asosida o'qitishning afzalliklari// Academic Research in Educational Sciences Multidisciplinary Scientific Journal September, Volume 3 | Issue 9 | 2022.
7. Shodiyev Hamza Rozikulovich, Sayfullayeva Gulhayo Masofaviy ta'limda yer mavzusini integratsion yondashuv asosida topish metodikasi//Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES) Volume 1, Issue 10 / ISSN 2181-2675.